



OSTONA SAMMITIDA MARKAZIY OSIYODA IQLM VA EKOLOGIYA MUAMMOLARINI HAL QILISH BO‘YICHA YANGI TASHABBUSLAR ILGARI SURILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan Mintaqaviy ekologik sammit va Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi ta‘sischi davlatlari rahbarlari kengashining yig‘ilishida ishtirok etish uchun 21-22-aprel kunlari amaliy tashrif bilan Ostona shahrida bo‘ldi.



Davlatimiz rahbari Qozog‘istonga amaliy tashrifi dasturi doirasida 22-aprel kuni Markaziy Osiyo mamlakatlari, Mo‘g‘uliston, Ozarbayjon, Gruziya va Armaniston delegatsiyalari rahbarlari bilan birgalikda Ostona shahridagi “EXPO” xalqaro ko‘rgazmalar markazida tashkil etilgan Mintaqaviy ekologik sammit ko‘rgazmasidagi milliy pavilyonlarni borib ko‘rdi.

MES — 2026 diqqat markazida ekologik siyosatga kompleks yondashuvni aks ettiruvchi sakkizta ustuvor yo‘nalish turibdi: iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish, oziq-ovqat xavfsizligi va ekotizimlar barqarorligini ta‘minlash, tabiiy xavf-xatarlarga moslashish va iqtisodiy barqarorlikni oshirish, havo ifloslanishini kamaytirish va chiqindilarni samarali boshqarish, ekologik maqsadlarga erishish mexanizmlarini rivojlantirish, tabiiy resurslarni barqaror boshqarish, adolati va inklyuziv “yashil” o‘tish, ekologik hamda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish. Sammit kun tartibi barqaror rivojlanishning ekologik hamda ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini ham qamrab olgan.

Tadbirda ishtirok etayotgan mamlakatlarning milliy pavilyonlarida ularning ushbu yo‘nalishlardagi yutuqlari va kelgusi rejalari namoyish etilmoqda.

Interfaollik va multimedia elementlariga ega ko‘rgazma-taqdimot maydoni shaklida barpo etilgan O‘zbekiston paviloni mamlakatimizning ekologiya, iqlim o‘zgarishi va Markaziy Osiyoning barqaror rivojlanishi sohalaridagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini aks ettiradi. Shuningdek, ekspozitsiya O‘zbekistonning ekologiya sohasida mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga qo‘shayotgan hissasini namoyon etadi.

Oliy martabali mehmonlarga ekologik taraqqiyotning zamonaviy modelini shakllantirishga qaratilgan asosiy tashabbuslarni o‘z ichiga olgan ekspozitsiya taqdim etildi. “Chiqindisiz hudud”, “Toza havo”, “Yashil makon”, “Ekomadaniyat”, “Biomeros” va “Ekologik ta‘lim” kabi umummilliy loyihalar shular jumlasidan.

Orol fojiasi oqibatlarini bartaraf etish, shuningdek, xalqaro tashkilotlar, eng avvalo, BMT tuzilmalari bilan hamkorlikni rivojlantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ostona shahrida bo‘lib o‘tayotgan Mintaqaviy ekologik sammitning ochilish marosimida ishtirok etdi.

Tadbirda Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iziston Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov, Mo‘g‘uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsux, Armaniston Prezidenti Vaagn Xachaturyan, Gruziya Prezidenti Mixail Kavelashvili va Ozarbayjon Bosh vaziri Ali Asadov hamda xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlari ham qatnashdi.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevni sammitning muvaffaqiyatli tashkil etilgani bilan samimiy tabriklab, uning ekologik xavf-xatarlarning o‘zaro bog‘liqligi va ularni birgalikda hal qilish zarurligini o‘zida mujassam etgan “Barqaror kelajak uchun umumiy nioh” degan bosh g‘oyasini to‘liq qo‘llab-quvvatlashini bildirdi.

Prezidentimiz mazkur uchrashuv o‘tgan yili Samarqand iqlim forumida boshlangan

muloqotning mantiqiy davomi ekanini ta‘kidlab, Markaziy Osiyo davlatlarining ekologik diplomatiyasi tizimli va izchil tus olib, sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilayotganidan mamnunligini ta‘kidladi.

O‘zbekiston yetakchisi qayd etganidek, bugungi kunda ekologik muammolarni global iqlim o‘zgarishlaridan ayri holda ko‘rib chiqib bo‘lmaydi.

Global isish sur‘atlarining tezlashishi davom etmoqda, Markaziy Osiyo mintaqasida esa harorat ikki barobar tezroq ko‘tarilmoqda. Mintaqa muzliklarining qariyb uchdan bir qismi yo‘qoldi, yog‘ingarchilik tartibining beqarorligi kuzatilmoqda, suv resurslari tanqisligi ortib bormoqda. Yer maydonlarining 80 million gektari allaqachon degradatsiyaga uchradi, — dedi davlatimiz rahbari.

Global ekologik birdamlik zaiflashayotganidan chuqur xavotir bildirildi. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq moliyalashtirish, ilg‘or texnologiyalar va innovatsiyalardan o‘z vaqtida va adolati foydalanish imkoniyati bilan ta‘minlanishi muhimligi ta‘kidlandi.

Markaziy Osiyo davlatlari atrof-muhitni muhofaza qilish masalalarini mintaqaviy hamkorlikning eng muhim ustuvor yo‘nalishi darajasiga ko‘tarishga muvaffaq bo‘lgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Buni “yashil” kun tartibini ilgari surish, iqlim o‘zgarishiga moslashish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha bir qator muhim, strategik ahamiyatga ega mintaqaviy dasturlarning qabul qilingani ham tasdiqlamoqda.

Davlatimiz rahbari O‘zbekistonda ekologik barqarorlikni ta‘minlash bo‘yicha ko‘rilayotgan tizimli chora-tadbirlarga alohida to‘xtalib o‘tdi.

— “Yashil makon” loyihasi doirasida qariyb 1 milliard tup daraxt va buta ekildi. Orol dengizining qurgan tubida 2 million gektardan ortiq maydonda o‘rmonzorlar barpo etilib, yangi “yashil belbog‘”lar yaratilmoqda. Bizning tashabbusimiz bilan BMT Bosh Assambleyasining “O‘rmonlashtirish va o‘rmonlarni tiklash bo‘yicha harakatlar o‘n yilligi” rezolyutsiyasi qabul qilindi, — dedi O‘zbekiston yetakchisi.

Bundan tashqari, suvni tejash borasidagi keng ko‘lamli sa‘y-harakatlar natijasida yiliga 10 milliard kub metr suv iqtisod qilinmoqda. Mamlakatimizning generatsiya quvvatlarida “yashil” energetika ulushi allaqachon 30 foizga yetdi, 2030-yilning oxiriga borib esa 50 foizdan oshadi.

Parij bitimi bo‘yicha zararli chiqindilarni 35 foizga kamaytirish majburiyati muddatidan oldin bajarilib, 2035-yilgacha ularni ikki barobar qisqartirish bo‘yicha yangi marra belgilandi.

Chiqindilardan energiya ishlab chiqarishga oid loyihalar faol amalga oshirilmoqda. Joriy yilda chiqindilarni yoqish bo‘yicha ikkita yangi zavod ishga tushiriladi, yana 9 tasi esa kelgusi ikki yil davomida faoliyatini boshlaydi. Ularning ishga tushirilishi har yili 5,5 million tonna chiqindini utilitatsiya qilish, 2,2 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish, shuningdek, chiqindilar hajmini 1 million tonnadan ortiqqa qisqartirish imkonini beradi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING MINTAQAVIY EKOLOGIK SAMMITDAGI NUTQI

Hurmatli Qosim-Jomart Kemelevich!
Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!
Xonimlar va janoblar!

Avvalo, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti hurmatli Qosim-Jomart Kemelevich Toqayevga Mintaqaviy ekologik sammitni o‘tkazish borasidagi tashabbusi hamda uni yuksak darajada tashkil etgani va an‘anaviy iliq mehmondo‘stlik uchun alohida minnatdorlik izhor etmoqchiman.

O‘zbekiston sammitining ekologik xavf-xatarlarning o‘zaro chuqur bog‘liqligi va ularni birgalikda hal qilish zarurligini ifoda etadigan “Barqaror kelajak uchun umumiy nioh” degan bosh g‘oyasini to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi.

Bugungi uchrashuv o‘tgan yili Samarqand iqlim forumida boshlangan muloqotning mantiqiy davomidir. Quvonarlisi shundaki, Markaziy Osiyo davlatlarining ekologik diplomatiyasi tizimli va izchil tus olib, sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilmoqda.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Bugungi kunda ekologik muammolarni global iqlim o‘zgarishlaridan ayri holda ko‘rib chiqib bo‘lmaydi.

Global isish sur‘atlarining tezlashishi davom etmoqda, Markaziy Osiyo mintaqasida esa harorat ikki barobar tezroq ko‘tarilmoqda. Mintaqa muzliklarining qariyb uchdan bir qismi

yo‘qoldi, yog‘ingarchilik tartibining beqarorligi kuzatilmoqda, suv resurslari tanqisligi ortib bormoqda. Yer maydonlarining 80 million gektari allaqachon degradatsiyaga uchradi.

Global ekologik birdamlik zaiflashayotgani chuqur xavotir uyg‘otmoqda. Deklaratsiyalar va da‘vatlar resurslar bilan mustahkamlanmayapti. Global iqlim o‘zgarishiga eng kam ta‘sir ko‘rsatayotgan mamlakatlar uning oqibatlari bilan yana yakkayu yolg‘iz qolmoqda.

Xalqaro hamjihatlik, eng avvalo, rivojlanayotgan mamlakatlarning iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq moliyalashtirish, ilg‘or texnologiyalar va innovatsiyalardan o‘z vaqtida, adolati va to‘siqsiz foydalanish imkoniyati bilan ta‘minlanishida namoyon bo‘lishi lozim deb qat‘iy ishonamiz.

Shuni mamnuniyat bilan qayd etmoqchimanki, Markaziy Osiyo davlatlari atrof-muhitni muhofaza qilish masalalarini mintaqaviy hamkorlikning eng muhim ustuvor yo‘nalishi darajasiga ko‘tarishga muvaffaq bo‘ldi. “Markaziy Osiyo uchun yashil kun tartibi” mintaqaviy dasturi, Iqlim o‘zgarishiga moslashish bo‘yicha mintaqaviy strategiya hamda Barqaror rivojlanish uchun atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha mintaqaviy dastur bunday sheriklikka misol bo‘la oladi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING OROLNI QUTQARISH XALQARO JAMG‘ARMASI TA‘SISCHI DAVLATLARI RAHBARLARI KENGASHI MAILISIDAGI NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Avvalo, samimiy mehmondo‘stlik va sammitimizni a‘lo darajada tashkil etgani uchun Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti, hurmatli Qosim-Jomart Kemelevich Toqayev Janobi Oliylariga bildirilgan minnatdorlik so‘zlariga qo‘shilaman.

Qozog‘istonlik do‘stlarimizning Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasiga samarali raisligini yuksak baholaymiz. O‘zaro ishonch va muloqotni mustahkamlash, Jamg‘arma doirasidagi loyihalarni amalga oshirish va uning faoliyatini mintaqaning barcha mamlakatlari manfaatlarini hisobga olgan holda takomillashtirish bo‘yicha salmoqli ishlar bajarildi.

Bugun qabul qilinayotgan yakuniy hujjatlarni qo‘llab-quvvatlaymiz. Ularning amalga oshirilishi mintaqaviy hamkorlikni yanada mustahkamlash va Orol dengizi havzasida barqaror taraqqiyotni ta‘minlash yo‘lida muhim qadam bo‘ladi.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi mamlakatlarimiz mustaqilligining ilk davrida Markaziy Osiyodagi suv bilan bog‘liq, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik sohalardagi eng muhim masalalarni hal etish uchun tashkil etilgan noyob mintaqaviy tuzilma bo‘lib qolmoqda.

Jamg‘arma mintaqada sifat jihatdan yangi davlatlararo munosabatlarni qaror toptirish, mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlashga katta hissa qo‘shdi.

Yo‘lga qo‘yilgan o‘zaro hamkorlik tizimi tufayli Jamg‘arma Orol dengizi havzasi suv resurslarini kelishilgan holda boshqarishni ta‘minlashga erishdi.

Markaziy Osiyoda suv taqchilligining kuchayishiga olib kelayotgan iqlim o‘zgarishlari va suv iste‘moli ko‘payib borayotgan sharoitda Jamg‘armaning roli va ahamiyati yanada ortib bormoqda.

Ekspertlarning baholariga ko‘ra, 2040-yilga borib, Orol dengizi havzasida suv resurslari taqchilligi deyarli ikki barobar — yiliga 20 milliard kub metr gacha oshishi mumkin. Bu ichimlik suvi ta‘minoti, ekologiya, agrar sektor, energetika va ijtimoiy barqarorlik uchun qo‘shimcha xavf-xatarlarni yuzaga keltiradi.

Shunday bir paytda mamlakatlarimiz suv resurslaridan foydalanish samaradorligi bo‘yicha eng quyi o‘rinlarni egallab turibdi. Qishloq xo‘jaligida bir dollar miqdoridagi qo‘shilgan qiymatni yaratish uchun davlatlarimiz deyarli uch kub metr suv sarf etmoqda, dunyoda esa bu ko‘rsatkich o‘rtacha ikki barobar kam.

Mintaqada yuzaga kelayotgan vaziyat bizdan suv-energetika va ekologiya sohalarida puxta o‘ylangan hamda kompleks yechimlarni birgalikda ishlab chiqish va amalga oshirishni talab etadi.

Hurmatli hamkasblar!

Bugun ertalab Mintaqaviy ekologik sammitda O‘zbekistonda milliy iqtisodiyotni iqlim o‘zgarishiga moslashtirish va atrof-muhitni muhofaza qilishni

kuchaytirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar haqida aytib o‘tgan edim.

Hozir esa Jamg‘armaning asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan suvdan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar haqida batafsil to‘xtalib o‘tishga ijozat bergaysiz.

Qisqa muddatda O‘zbekistondagi barcha sug‘oriladigan yerlarning 60 foizida suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etildi, irrigatsiya tarmoqlarini betonlash 40 foizga yetkazildi. Nasos stansiyalarini modernizatsiya qilish hisobiga suv xo‘jaligida energiya iste‘moli qariyb 30 foizga qisqartirildi. 600 mingdan ortiq suvdan foydalanuvchilar va 4 million gektardan ziyod sug‘oriladigan yerlarni qamrab oladigan yagona raqamli ma‘lumotlar bazasi shakllantirilmogda.

Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi tufayli har yili 10 milliard kub metrdan ortiq suv resurslarini tejash ta‘minlanmoqda. 2030-yilga borib esa bu ko‘rsatkich 15 milliard kub metрни tashkil etadi. Mazkur choralarning barchasi kompleks va izchil xarakterga ega bo‘lib, o‘tgan yili qabul qilingan Suv kodeksida o‘z ifodasini topgan.

Qadrli do‘stlar!

Kelgusi yildan Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasiga raislik O‘zbekistonga o‘tadi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON MINTAQADA FAOL TASHABBUSKOR SIFATIDA TRANSCHEGARAVIY MUAMMOLARGA YECHIM TOPIISHDA ANIQ YONDASHUVLARNI TAKLIF ETMOQDA

Xorijiy ekspertlar O‘zbekiston Prezidentining Ostona shahriga amaliy tashrifi yakunlarini mintaqaviy ekologik hamkorlikni mustahkamlash va Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanishning qo‘shma kun tartibini tizimli amalga oshirishga o‘tishning muhim bosqichi sifatida baholamoqda.



Marina GONCHARUK, Ukrain — Turk markazi direktori:

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qozog‘istonga amaliy tashrifi, Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan Mintaqaviy ekologik sammit va Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi ta‘sischi davlatlari rahbarlari kengashi yig‘ilishidagi ishtiroki Markaziy Osiyoning yaxlit ekologik kun tartibini shakllantirish va barqaror rivojlanish masalalari bo‘yicha ko‘p tomonlama hamkorlikni mustahkamlashda muhim bosqich bo‘ldi.

Ostonadagi muhim xalqaro tadbirlar kun tartibining diqqat markazida iqlim o‘zgarishi, suv resurslaridan oqilona foydalanish, cho‘llanish va atrof-muhit ifloslanishiga qarshi kurash masalalari turadi.

O‘zbekiston rahbari o‘z nutqlarida mamlakatdagi ekologik islohotlarning tizimli xarakterini, ko‘kalamzorlashtirish, qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish, suvni tejash va chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha keng ko‘lamli tashabbuslar amalga oshirilayotganini qayd etdi. Xalqaro hamkorlikka, jumladan, BMT doirasidagi sheriklikka, rivojlanayotgan mamlakatlarning iqlimiy moliyalashtirish va texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligiga alohida e‘tibor qaratildi.

Ekspertlarning fikricha, davlatimiz rahbarining Qozog‘istonga amaliy tashrifi va sammitlardagi ishtiroki O‘zbekistonning Markaziy Osiyoda ekologik xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha jamoaviy qarorlarni ishlab chiqishda faol va tashabbuskor rol o‘ynashiga intilishidan dalolat beradi. Shakllanayotgan mintaqaviy ekologik diplomatiya barqaror rivojlanishning muhim omiliga aylanib, Markaziy Osiyo davlatlarining umumiy iqlim muammolari oldidagi sa‘y-harakatlarini birlashtirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan Ostona bo‘lib o‘tgan Mintaqaviy ekologik sammit hamda Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi ta‘sischi davlatlari rahbarlari kengashining yig‘ilishidagi ishtiroki Toshkentning izchil va strategik jihatdan puxta siyosatini yaqqol aks ettiradi.

Bu yerda gap shunchaki diplomatik ishtirok haqida emas, balki Markaziy Osiyoning barqaror rivojlanish kun tartibi shakllantiriladigan va butun mintqa uchun uzoq muddatli ahamiyatga ega qarorlar qabul qilinadigan muhim formatlarda mazmunli qatnashish haqida bormoqda.

Bugungi kunda ekologik muammolar, jumladan, suv resurslari va iqlim o‘zgarishi masalalari Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonning transchegaraviy muammolari hal etish bo‘yicha aniq yondashuvlarni taklif etib, faol tashabbuskor va birlashtiruvchi kuch sifatida maydonga chiqayotgani ayniqsa muhimdir. Sammit yakunida mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga va o‘zaro kelishilgan hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan muhim hujjatlar qabul qilindi.

Bunday tashqi siyosiy faollik keng ko‘lamli islohotlar dasturining uzviy qismi bo‘lib, uning doirasida ochiqlik, modernizatsiya va yaxshi ko‘shinchilik munosabatlarni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Qozog‘istonga tashrif va ekologik tashabbuslardagi ishtirok bu yo‘l nafaqat mamlakat ichida, balki mintaqaviy darajada ham amalga oshirilayotganidan dalolat beradi.

O‘zbekiston rahbari o‘z nutqlarida mamlakatdagi ekologik islohotlarning tizimli xarakterini, ko‘kalamzorlashtirish, qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish, suvni tejash va chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha keng ko‘lamli tashabbuslar amalga oshirilayotganini qayd etdi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston jiddiy ekologik muammolarga, birinchi navbatda, Orol inqirozi oqibatlari bilan bog‘liq qiyinchiliklarga duch kelayotganini ta‘kidlash lozim. Biroq aynan shunday murakkab sharoitda mamlakat tizimli va mas‘uliyatli yondashuvni namoyon etib, Orolning qurigan tubida millionlab gektar maydonda o‘rmonzorlar barpo etish bo‘yicha keng ko‘lamli loyihalarni amalga oshirmoqda.

Shuningdek, suv resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha tashabbuslar faol ilgari surilmoqda hamda Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi doirasidagi hamkorlik mustahkamlanmoqda. Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Orolbo‘yi mintaqasi BMT shafeligida ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi sifatida xalqaro miqyosda tan olindi.

Ko‘p jihatdan aynan shunday sa‘y-harakatlar tufayli Markaziy Osiyo bugungi kunda yaxshi ko‘shinchilik va umumiy kelajak uchun birgalikdagi mas‘uliyat makoni sifatida qabul qilinmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning izchil siyosati mintaqaviy mamlakatlari o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlashga hamda amaliy yechimlar va o‘zaro qo‘llab-quvvatlashga asoslangan hamkorlikning yangi modelini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Ishonchim komilki, bunday tashabbuslar mintqa hududidan tashqarida ham katta ahamiyatga ega. Ular gumanitar, madaniy va ekspertlararo hamkorlikni o‘z ichiga olgan xalqaro aloqalarni kengaytirish uchun mustahkam zamin yaratadi hamda Markaziy Osiyo makonining barqaror rivojlanishi va barqarorligidan manfaatdor mamlakatlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Shandor SHEREMET, Vengriya Xalqaro munosabatlar instituti yetakchi ilmiy xodimi:



O‘ylashimcha, Orol dengizi fojiasi yana bir bor shuni ko‘rsatmoqdaki, iqlim bilan bog‘liq muammolar chegaralar talamaydi. Yakka tartibdagi tashabbuslar muhim bo‘lsa-da, ular kompleks mintaqaviy hamkorliksiz faqat cheklangan natija beradi. Suv ta‘minoti, suv tanqisligi, qurg‘oqchilik va Orol dengizi o‘rmonida paydo bo‘lgan Orolqum cho‘lidan tuz va chang tarqalishi nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun qit‘a uchun umumiy muammo.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonning Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi faoliyatidagi ishtiroki davlatning iqlim masalalariga mas‘uliyat bilan yondashayotganini va mintaqaviy hamkorlikning muhimligini to‘g‘ri anglayotganini ko‘rsatadi.

Markaziy Osiyoda O‘zbekiston va Qozog‘iston yetakchi davlatlar ekanini, bu esa tabiiy ravishda mintaqaviy yetakchilik uchun raqobat muhitini shakllantiradi. Sog‘lom raqobat energetika xavfsizligi, ekologik siyosat, iqlim va suv resurslarini boshqarish kabi muhim sohalarida yaqin hamkorlikka to‘sinlik qilmaydi.

Sirdaryo va Amudaryo suv resurslarini taqsimlash bo‘yicha yagona avtomatlashtirilgan tizim joriy etish, transchegaraviy suvlardan foydalanish bo‘yicha huquqiy asoslarni shakllantirish kabi tashabbuslar mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Prezidentining Ostona tashrifi mamlakat rahbariyatining suv resurslarini boshqarishga pragmatik yondashuvini va mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirishga tayyor ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston tashqi siyosatda ochiqlik strategiyasini izchil amalga oshirmoqda. Shavkat Mirziyoyevning harakatlari milliy manfaatlarini himoya qilishda aloqalarni cheklov emas, balki uni amalga oshirish vositasi sifatida ko‘rayotgan pragmatik yondashuvni namoyon etmoqda. Shu orqali O‘zbekiston mintaqada faqat hamkor emas, balki muhim tashabbuskor davlat sifatida ham namoyon bo‘lmoqda.

Aleksandra PERMINOVA, Rossiya fanlar akademiyasi Xitoy va zamonaviy Osiyo instituti Markaziy Osiyo tadqiqotlari markazi rahbari vazifasini bajaruvchisi:

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Mintaqaviy ekologik sammit va Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi (OQXJ) ta‘sischi davlatlari rahbarlari kengashi



yig‘ilishida ishtirok etish uchun Ostona tashrifi, avvalo, ayni damda tashkilot o‘zini o‘zi ichki qayta anglash bosqichidan o‘tayotgan bir paytda tashkil etilgani bilan ahamiyatlidir.

2026-yil mart oyida Ostona shahrida Orol dengizini qutqarish xalqaro jamg‘armasi Boshqaruvi yig‘ilishi bo‘lib o‘tgan edi. Yig‘ilishda Markaziy Osiyoda suv, ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida birgalikdagi harakatlarni amalga oshirish, transchegaraviy suv resurslarini boshqarish va Orol dengizining holatini yaxshilash borasida barqaror hamkorlikni saqlab qolish masalalari muhokama qilingan edi.

OQXJ doirasidagi muloqot O‘zbekiston uchun mintaqadagi suv masalalari kun tartibining o‘ta muhim qismi hisoblanadi. Ostona yig‘ilishida uchrashuvning mintqa davlatlari rahbarlari darajasida o‘tganiga esa Toshkentning Markaziy Osiyo integratsiyasini rivojlantirish borasidagi manfaatlariga mos keladi. Bundan tashqari, mazkur sammit OQXJga raislikning 2027-2029-yillar uchun O‘zbekistonga o‘tishi arafasida o‘tkazilmoqda.

Shu bilan birga, Orol dengizi bilan bog‘liq vaziyatdan tashqari, umuman suv-energetika masalalarini hal etish, suv resurslaridan oqilona foydalanish kabi muammolarga aynan mintqa mamlakatlarining o‘zaro umumiy yechim topishi Markaziy Osiyo davlatlarining yanada yaqinlashishga olib boruvchi qadamlardan biridir.

Ostonada bo‘lib o‘tgan uchrashuvlarda Markaziy Osiyoning barqaror taraqqiyoti yo‘lida mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, mintaqaning dolzarb ekologik, iqlim va suv muammolarini hal etish masalalari alohida muhokama qilindi.

Aydin ASKEROV, Latviya Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq masalalarini o‘rganish instituti direktori:

Mazkur tashrif O‘zbekistonning mintaqaviy ekologik kun tartibini ilgari surish va Markaziy Osiyoda ko‘p tomonlama hamkorlikni mustahkamlash borasidagi roli ortib borayotganidan dalolat beradi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlik masalalaridagi faol pozitsiyasi yuksak bahoga sazovordir.

O‘zbekiston yetakchisining sammitlar chog‘ida iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish, “yashil” texnologiyalarni joriy etish va barqaror ekologik siyosati shakllantirish bo‘yicha mintqa mamlakatlari sa‘y-harakatlarini birlashtirishga qaratilgan yangi tashabbuslariga alohida e‘tibor qaratim.

Suvdan foydalanish sohasida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energetika bo‘yicha loyihalarni kengaytirish, ekologik monitoringning samarali mexanizmlarini yaratishga oid tashabbuslar O‘zbekistonning strategik qarashlarini va uning Markaziy Osiyodagi ijobiy o‘zgarishlar drayveri bo‘lishga tayyorligini namoyon etadi.



Prezident Shavkat Mirziyoyevning Ostona sammitlaridagi ishtiroki mintaqaviy hamkorlikning yangi bosqichini aks ettiradi. Bu bosqichda Markaziy Osiyo mamlakatlari iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekotizimlarni asrash kabi global muammolarni birgalikda hal etishga tayyorligini namoyish qilmoqda.

O‘zbekiston yetakchisining izchil siyosati tufayli mintaqada ishonch, ochiqlik va konstruktiv muloqot muhiti shakllanmoqda. Bu esa qo‘shma ekologik va iqtisodiy tashabbuslarni amalga oshirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Bugungi kunda ekologik diplomatiya mintaqaviy hamkorlikning muhim yo‘nalishiga aylanmoqda va O‘zbekiston bu jarayonda asosiy o‘rinlardan birini egallamoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning sammitida ilgari surgan tashabbuslari amaliy hamkorlikka qo‘shimcha sur‘at bag‘ishlab, mintaqadagi barcha mamlakatlar manfaatlari yo‘lida samarali yechim ishlab chiqilishiga hissa qo‘shadi.

“Dunyo” AA



Munosabat

Ko‘hna va hamisha navqiron Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan “Jamoat salomatligi va xavfsizligini ta‘minlash maqsadida transmilliy narkotahdidlarga qarshi kurashish” mavzusidagi xalqaro forumni bugungi global xavfsizlik kun tartibini belgilab berayotgan muhim siyosiy-amaliy muloqot maydoni sifatida baholash joiz. Zero, mazkur anjuman dunyo hamjamiyati oldida turgan ega dolzarb va murakkab muammolardan biri — narkotrafik va u bilan uzviy bog‘liq transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashishda mutlaqo yangi, tizimli yondashuv zarurligini ochiq-oydin ko‘rsatmoqda. Bugungi sharoitda davlatlararo hamkorlikni chuqurlashtirmay turib, bunday tahdidlarga qarshi samarali javob qaytarish amalda imkonsiz ekanini tobora ayon bo‘lmoqda.



Qutbiddin BURHONOV, Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi raisi

Narkotahdidlar chegaralar talamaydi. Shu bois, ularga qarshi faqat bir davlat doirasida kurashish samara bermaydi. Aksincha, bu jarayon globallashuv sharoitida yanada tezlashib, yangi shakl va usullar bilan namoyon bo‘lmoqda. Bir davlat hududida ishlab chiqarilgan yoki qayta ishlangan narkotik moddalar qisqa vaqtda boshqa qit‘alarga yetib borayotgani, raqamli texnologiyalar orqali ularning noqonuniy savdosi yo‘lga qo‘yilayotgani mazkur muammoning qanchalik murakkab va ko‘p qirrali



CHEGARA BILMAS TAHDIDLARGA QARSHI YAKDIL QADAMLAR

Samarqand forumining strategik ahamiyati

ekanini ko‘rsatadi. Shu ma‘noda, narkotrafik endi faqat jinoyatchilik masalasi emas, balki iqtisodiy barqarorlik, jamoat salomatligi va hatto davlat suverenitetiga daxl qiluvchi kompleks xavfga aylanmoqda.

Statistik ma‘lumotlar ham ushbu muammoning dolzarbligini tasdiqlaydi. Giyohvandlik moddalari iste‘molining ortib borayotgani sog‘liqni saqlash tizimiga tushayotgan bosimni keskin oshirmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy muvozanatga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida narkotik moddalarga moyillikning kuchayishi jamiyat taraqqiyotiga jiddiy xavf soladi. Chunki bu holat inson kapitali sifatining pasayishi, mehnat bozorida raqobatbardoshlikning kamayishi va umumiy ijtimoiy barqarorlikning izdan chiqishiga olib kelishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Samarqand forumining ahamiyati yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. U nafaqat keng masshtabda o‘zaro fikr almashish, balki aniq amaliy mexanizmlar ishlab chiqish, ilg‘or tajribalarni uyg‘unlashtirish va davlatlar o‘rtasida ishonchli hamkorlik muhitini mustahkamlashga xizmat qiladigan strategik platformadir. Eng muhimi, bunday anjumanlar orqali narkotahdidlarga qarshi kurashishda samarasiz yondashuvlar o‘rniga o‘zaro muvofiqlashtirilgan, uzviy va uzoq muddatli siyosatni shakllantirish imkoniyati yuzaga keladi.

Ahamiyatlisi, mazkur forumda 50 dan ortiq davlat vakillari, 500 dan ziyod xalqaro ekspert va mutaxassislar, shuningdek, BMT, Interpol, Yevropa Ittifoqi, MDH hamda SHHT kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar delegatsiyalarining ishtiroki forumning naqardar keng qamrovli va muhim ekanini ko‘rsatadi.

Forum ishtirokchilariga davlatimiz rahbarining murojaati yetkazilgani esa O‘zbekistonning ushbu yo‘nalishdagi qat‘iy siyosiy irodasini ifodaladi,



desak to‘g‘ri bo‘ladi. Prezidentimiz murojaatida transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashish faqat bir davlatning vazifasi emasligi, balki umumiy mas‘uliyat ekanini alohida ta‘kidlangan.

Hamkorlik — asosiy yechim

Narkotahdidlarga qarshi samarali kurashishda hal qiluvchi omil xalqaro hamkorlikni izchil va tizimli mustahkamlashdir. Chunki narkotik moddalarni ishlab chiqarish, tranzit qilish va tarqatish janjirli odatda bir nechta davlat hududini qamrab oladi va turli huquqiy tizimlar, nazorat mexanizmlari hamda institutlar kesishmasida amalga oshiriladi. Bunday sharoitda faqat milliy

darajada ko‘rilgan chora-tadbirlar cheklangan samara beradi. Aksincha, muvofiqlashtirilgan, o‘zaro ishonchga asoslangan va tezkor hamkorlik mexanizmlariga real natija berishi mumkin.

Bu o‘rinda axborot almashinuvining samaradorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki o‘z vaqtda va ishonchli ma‘lumotga ega bo‘lish jinoyat janjirini ildizida bartaraf etish imkonini beradi. Qo‘shma operatsiyalar esa nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasidagi hamjihatlikni kuchaytirish, balki transmilliy jinoyat tarmoqlarni kompleks fosh etishga xizmat qiladi. Yagona yoki o‘zaro uyg‘unlashtirilgan strategiyalarning mavjudligi esa harakatlar samarasiz bo‘lib ketishining oldini olish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini yaratadi.

Forum doirasida ilgari surilgan tashabbuslar aynan shu strategik yondashuvni amalda ta‘minlashga qaratilgan. Xususan, davlatlar o‘rtasida tezkor va himoyalangan ma‘lumot almashish tizimlarini yaratish, zamonaviy raqamli va analitik texnologiyalar orqali monitoringni kuchaytirish, shuningdek, chegaralararo nazoratni yangi bosqichga olib chiqish masalalari keng muhokama qilindi. Bu esa kelgusida narkotrafikka qarshi kurashishda faqat reaktiv emas, balki profilaktik va oldindan ogohlantiruvchi mexanizmlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Yirik anjuman doirasida tashkil etilgan ko‘rgazma alohida e‘tiborga loyiq. U nazariy muhokamalarni amaliy yechimlar bilan bog‘lab berdi. Unda uyushgan narkojinoyatchilikka qarshi kurashishda qo‘llanayotgan eng so‘nggi va samarali texnologiyalar namoyish etildi. Jumladan, sun‘iy intellekt asosida ishlovchi tahliyl tizimlar, yuzni aniqlash va biometrik identifikatsiya vositalari, yuklarni yuqori aniqlikda skanerlash qurilmalari hamda kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishda ma‘lumotlarni platformalar ishtirokchilarida katta qiziqish uyg‘otdi.

Mazkur texnologiyalarning o‘ziga xos jihati shundaki, ular an‘anaviy kurash usullarini to‘ldiribgina qolmay, sifatijihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Agar ilgari asosiy e‘tibor jinoyat sodir etilgandan keyin uni ochildiga qaratilgan bo‘lsa, bugungi zamonaviy texnologiyalar orqali jinoyatlarni avvaldan prognoz qilish va barvaqt oldini olish imkoniyati paydo bo‘lmoqda. Ayniqsa, katta hajmdagi ma‘lumotlarni qisqa vaqtda tahlil qilish imkoniga ega sun‘iy intellekt tizimlari narkotrafik yo‘nalishlarini aniqlash, xavfli aloqalarni fosh etish va shubhali operatsiyalarni barvaqt belgilashda muhim vositaga aylanmoqda.

Yagona sun‘iy intellekt platformasi tashabbusi

Forumda O‘zbekiston tomonidan yagona sun‘iy intellekt platformasini yaratish tashabbusi ilgari surildi. Bu g‘oyani oddiy texnologiyangilik sifatida emas, balki transmilliy narkotahdidlarga qarshi kurashishning mutlaqo yangi modeli sifatida baholash o‘rinli. Chunki ma‘lumot asosiy resurs hisoblanayotgan bir paytda uni to‘plash, qayta ishlash va tezkor almashish imkoniyati xavfsizlik samaradorligini belgilab beruvchi, hal qiluvchi omilga aylanmoqda.

Taklif etilayotgan platforma aynan shu ehtiyojdan kelib chiqqan holda bir nechta muhim funksiyani o‘zida mujassam etishi kutilmoqda. Jumladan, narkotrafik yo‘nalishlarini real vaqt rejimida kuzatish orqali xavf manbalarini barvaqt aniqlash, xatarli yuklarni avtomatlashtirilgan tarzda monitoring qilish, transmilliy jinoyat tarmoqlarining faoliyatini chuqur tahlil qilish hamda davlatlar o‘rtasida tezkor va ishonchli axborot almashinuvinini ta‘minlash imkoniyati yaratiladi. Bu esa qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirib, amaliy choralarni o‘z vaqtda ko‘rishga zamin yaratadi.

Eng muhimi, mazkur platforma alohida davlatlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi “aqlli markaz” vazifasini bajarishi mumkin. Ya‘ni u orqali samarasiz ma‘lumotlar yagona tizimga keltirilib, umumiy tahdidlarga nisbatan uyg‘un va muvofiq javob choralari ishlab chiqiladi. Natijada narkotrafikka qarshi kurashish faqat reaktiv xarakterda emas, balki ilgari surilgan xavflarni prognoz qilish va oldini olishga qaratilgan yakdil tizimga aylanadi.

Ushbu tashabbus amalga oshirilsa, global miqyosda narkotahdidlarga qarshi kurashish samaradorligi sezilarli darajada olishi tabiiy. Yanada muhimi, bunday platforma davlatlar o‘rtasida ishonchni mustahkamlash, ochiqlikni ta‘minlash va hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Yana bir gap. Narkotiklarga qarshi kurash faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi emas. Bu, avvalo, jamoat salomatligi masalasidir. Zotan, giyohvandlik inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazadi, oilalarni parokanda qiladi va jamiyatda ijtimoiy muammolarni kuchaytiradi.

Shu bois, forumda profilaktika, reabilitatsiya va aholining xabardorligini oshirish masalalariga ham alohida e‘tibor qaratildi. Ayniqsa, yoshlar bilan ishlash, ularni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish va zararli odatlardan himoya qilish muhim vazifa sifatida belgilandi.

Forum doirasida “Narkotiklarga qarshi kurashish fidoyisi” ko‘krak nishoni bilan qurilgan xalqaro tashkilotlar rahbarlarining taqdiranishi ham muhim voqea bo‘ldi. Bu nafaqat ularning xizmatlarini e‘tirof etish, balki ushbu yo‘nalishda faoliyat yuritayotgan boshqa mutaxassislar uchun ham katta motivatsiya vazifasini o‘taydi.

Kelajakda ushbu forumda ilgari surilgan g‘oyalarni amaliy natijalarga aylantirish, davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlanishi va eng muhimi, insoniyat xavfsizligi va salomatligini ta‘minlash yo‘lida muhim qadamlar qo‘yilishiga ishonchimiz komil.

